

QIPCHOQLARNING MARKAZIY OSIYODA TUTGAN O'RNI.

Xursanbekov Muhammadyusuf Oybek o'g'li

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Namangan filiali talabasi Xursanbekovm13@gmail.com

Ibragimjonov Xayotbek Ismoiljon o'g'li

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Namangan filiali talabasi

Hayotjonibragimjanov2000@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu ma'qolada Qipchoqlar (Kipchaklar)ning Markaziy Osiyodagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida tutgan o'rni hamda ularning tatixiy rivojlanish jarayoni tahlil qilinadi. Asarda Qipchoq qabilalarining kelib chiqishi, ularning turkiy qabilalar bilan aloqalari, Dashti Qipchoq hududining shakillanishi va bu hududning mintaqaviy siyosiy jarayonlarga ko'rsatgan ta'siri yoritiladi. Tatqiqotlar natijasida Qipchoqlar Markaziy Osiyoning siyosiy xaritasini shakillantirishda muhim rol o'ynagani va ularning madaniy merosi keyingi turkiy xalqlar taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatgani aniqlanadi.

Kalit so'zlar: Qipchoqlar, Dashti Qipchoq, Markaziy Osiyo, Qipchoqlar qirg'ini, Sharqiy Turkiston, siyosiy tarix, ko'chmanchi madaniyat, o'rta asr davlatchiligi, Turkiy xalqlar.

Abstract: This article analyzes the role of the Kipchak (Qipchoq) people in the political, economic, and cultural life of Central Asia, as well as their historical development process. The paper discusses the origins of the Kipchak tribes, their relations with other Turkic tribes, the formation of the Dasht-i-Qipchaq region, and the impact of this region on regional political processes. Research findings indicate that the Kipchaks played a crucial role in shaping the political map of Central Asia and that their cultural heritage significantly influenced the development of later Turkic peoples. Additionally, the article provides an in-depth analysis of the Kipchaks' territorial influence, political and economic significance, and historical processes. This analysis helps to better understand the interactions between Turkic peoples in Central Asia.

Keywords: Kipchaks, Dasht-i Qipchaq, Central Asia, Kipchak massacre, Eastern Turkestan, political history, nomadic culture, medieval statehood, Turkic peoples.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль кипчаков (кыпчаков) в политической, экономической и культурной жизни Центральной Азии, а также процесс их исторического развития. Анализируются происхождение кипчацких племен, их связи с другими тюркскими племенами, формирование региона Дешт-и Кипчак и влияние этого региона на политические процессы в регионе. В результате исследования установлено, что кипчаки сыграли важную роль в формировании политической карты Центральной Азии, а их культурное наследие оказало значительное влияние на развитие последующих тюркских народов.

Ключевые слова: кипчаки, Дешт-и Кипчак, Центральная Азия, резня кипчаков, Восточный Туркестан, политическая история, кочевая культура, государственность средневековья, тюркские народы.

KIRISH

Qipchoqlar turkiy xalqlarning eng yirik qabilalaridan biri ; o'zbek xalqi etnik tarkibidagi asosiy kopponetlardan biri. Qipchoqlar nafaqat O'zbek xalqi shakillanishida, balki qator boshqa turkiy xalqlar –Qozoqlar, Qirg'izlar, Qoraqalpoqlar, Turkmanlar, Tatarlar, Boshqirdlar, Oltoyliklar va Shimoliy Kavkazdagi ayrim xalqlar (No'g'aylar, Qo'miqlar, Qorachoylar va boshqalar) shakillanishida muhim ro'l o'ynagan.

Qipchoqlarga xos etnik belgilar Usmonli turklar, Vengerlar va boshqa qator xalqlar tarkibida ham mavjud. Markaziy Osiyo qadimdan buyon turli xalqlar, qabilalar va madaniyatlar chorrahasi bo'lib kelgan. Bu mintaqada yuzaga kelgan siyosiy jarayonlar va madaniy o'zgarishlarda ko'plab ko'chmanchi xalqlar, xususan Qipchoqlar muhim ro'l o'ynagan. Qipchoqlar nafaqat harbiy kuch balki siyosiy tuzulmalar bilan, balki o'ziga xos madaniyat, til va urf-odatlar bilan ham tarixda o'chmas iz qoldirgan. Mil.avv 3-asr. va milodiy-4 asrlarda Shimoliy-G'arbiy Oltoyda yashaganlar.

Qipchoqlarning ajdodlaridan bir qismi 6-asrda G'arbiy Oltoydan chiqib, hozirgi Mo'g'iliston va Tuva yerlariga kelib o'rnamshdilar. Ikkinchi qismi esa Irtish daryosi yaqinidagi dashtlarga ko'chib o'tib Kimaklarga tobe bo'lgan. 8-12 asrlarga kelib Qipchoqlar Dashti Qipchoq cho'llarida yashagan paytlarda ularning tarkibiga til jihatidan qardosh bo'lgan ko'plab etnik guruhlar kelib qo'shilgan. 8-9-asrlarda O'rta Osiyo va Qozog'iston hududidagi boshqa qabilalarni hamda Uralbo'yi va Vo'lganing o'rta oqimidagi turkiylashgan ugar-fin qabilalarini ham o'zlarining tarkibiga kiritganlar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Mazkur davrga oid bir qator manba va adabiyotlar mavjud bo'lib, ushbu adabiyotlar bizga o'z ichidan bir-biriga o'xshamagan ma'lumotlarni beradi. Bunga misol tariqasida Rus olimi Pyotr Goldenning o'z asarida bergan malumotlarini olishimiz mumkin ushbu asarda Qipchoqlarning kelib chishi, ularni nomlanishi va boshqa halqlar ularni turli nomlar bilan nomlanganligi haqidagi malumotlarni uchratishimiz mumkin[1]. Bu manbaga yondoshgan xolda shunga o'hshash manba sifatida Lev. N. Gumilevni "Qadimgi Turklar" asarida Qipchoqlar haqida keng doiradagi malumotlarni berib o'tadi Lev Gumilev o'z asarida Qipchoqlarning boshqa davlat va xalqlar bilan o'rtasidagi nizolar va uning sabablari haqida yorqin malumotlarni berib o'tagan[2].

Qipchoqlar asosan kimlar bilan nizolarga borishgan deb savol bersak bunga javob tariqasida Istvan Vassaryning asarida javob topamiz, yani ushbu asarda qipchoqlarning urushlari bunga misol tariqasida Qipchoqlar eng avvalo Rus knyazliklari bilan uzoq davom etgan janglarda ishtirok etganlar, Qipchoq qo'shinlari Saharqiy Yevropa dashtlariga kirib kelib, Dnepr va Don oralig'idagi hududlarni nazorat qilishga harakat qildilar. Bundan tashqari yirik janlar sirasiga Gurjiston (Gruziya) davlatlari bilan nizolar kelib chiqqan va natijada yirik ushlarga sabab bo'lgan[3].

Qipchoqlarning eng yirik va halokatli janglari ham mavjud, ushbu jang Qipchoqlar va Mo'g'illar o'rtasidagi jang. Ushbu jang 1223-yilda bo'lib o'tgan Kalka daryosi jangini keltirishimiz mumkin. Bu jangda Rus va Qipchoq qo'shinlari birlashib, Mo'g'illar (Subutoy va Jebe boshchiligida) bilan jang qilganlar, ammo tor-mor bo'lganlar. 1236-1240-yillarda

Chingizxonning nabirasi Batu xon Dashti Qipchoqni bosib olib, Qipchoq xalqi Oltin O'rda imperiyasi tarkibiga kiritilgan[4].

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Qipchoqlar O'rta asr dunyosida turlicha nomlar bilan tanilgan. Ruslar ularni "Polovetslar", Vengerlar "Kunok", Arablar va Forslar "Qipchoq" hamda "Qang'il", Mo'g'illar "Kimchag", Nemislar esa ba'zan "Falven" deb atagan. Yevropaning boshqa xalqlari esa ularni ko'pincha "Kumanlar" deb bilgan. Ularning nomi turli manbalarda turli shakllarda yozilgan: Kipchak, Qifjaq, Xifjaq, Kimcha'ud, Quman (Vizantiyaliklar o'z qo'shinidagi Pecheneg yoki Kumanlarni shunday atagan) va yana o'nlab shakllarda. Ingiliz tilidagi eng ko'p uchraydigan variantlar: Kipchak/ Qipchaq, Cuman(Kuman) va Kangli. Nega uch xil nom? Chunki Qipchoqlarni uch asosiy guruhga ajratish mumkin: asosiy yoki markaziy qismi Qipchoqlar, g'arbiy (Yevropalik) tarmog'i Kumanlar, sharqiy (Osiyolik) tarmog'i Qanglilar deb yuritilgan. Qipchoqlar haqida Rus yilnomalarida ilk bor 1055-yilda eslatiladi. Ularning paydo bo'lishi ruslar orasida qo'rquv uyg'otgan, chunki ular g'arbga tomon siljiyotgan turkiy qabilalarning yangi to'liqini edi. Bo'sh joy va mustaqillik istagi bilan harakat qilgan Qipchoqlar o'n yil ichida Rus knyazlari bilan ko'plab janglar olib borib, katta hududlarni egallashga muvaffaq bo'lganlar. Shu tariqa, Qipchoqlar keyingi 150 yil davomida Yevropa, Osiyo va Yaqin Sharqqa kirish yoki chiqish yo'lining egalari bo'lganlar[1]. Qipchoqlar XII asrda Sharqiy Yevropa muhim ro'l o'ynab rus knyazliklari, Bolqon hududlari, Vizantiya imperiyasi va hatto Guruziya malikasi Tamara davrida (1184-1213-yillar) ko'plab Qipchoq jangchilari gurizin lashkariga yollanib, Guruziya harbiy kuchining asosiy qismini tashkil qilgan. Qipchoqlar o'z davrining eng mohir otliq jangchilar hisoblangan. Ularning harbiy strategyasi tezkor yurishlar, pistirma uslub va kamon otish san'atiga asoslangan edi[2]. Qipchoqlar faoliyati davomida bir nechta yirik to'qnashuvlar va harbiy yurushlar qilib o'tishgan bunga misol tariqasida XI-XII- asrlarda Rus knyazliklari bilan bolgan to'qnashuvlar, Vizzantiya imperiyasi bilan, Bolqon mamlakatlari va Vengriya bilan, bundan tashqari Gurjiston (Gruziya) davlatlari bilan nizolar kelib chiqqan va natijada yirik ushlarga sabab bo'lgan[3]. Ushbu yirik jangalarga qisqacha to'htaladigan bo'lsak Qipchoqlar eng avvalo Rus knyazliklari bilan uzoq davom etgan janglarda ishtirok etganlar. Qipchoq qo'shinlari Saharqiy Yevropa dashtlariga kirib kelib, Dnepr va Don oralig'idagi hududlarni nazorat qilishga harakat qildilar. 1061- Qipchoq lashkarlari Kiev Rusi ustiga yurish qilib, Kiev knyazi IzyaslavI qo'shinini tor-mor qilganlar. 1091-1095- yillar Qipchoqlar Kiev, PereyaslavI va Chernigov knyazliklarida hujumlar uyushtirganlar. 1180-1220- yillarda Qipchoqlar va Ruslar o'rtasida ham janglar, ham ittifoqlar bo'lagan. Bunga misol tariqasida shuni aytish mumkinki Ruslar ba'zan Qipchoq otliqlarini yollashgan[4]. Qipchoqlarning eng yirik va halokatli urushi Mo'g'illar bilan bo'lgan. Bunga misol qilib 1223-yilda bo'lib o'tgan Kalka daryosi jangini keltirishimiz mumkin. Bu jangda Rus va Qipchoq qo'shinlari birlashib, Mo'g'illar (Subutoy va Jebe boshchiligida) bilan jang qilganlar, ammo tor-mor bo'lganlar. 1236-1240-yillarda Chingizxonning nabirasi Batu xon Dashti Qipchoqni bosib olib, Qipchoq xalqi Oltin O'rda imperiyasi tarkibiga kiritilgan[5]. Bundan tashqari. 19-asirning o'rtalariga kelib, Qo'qon xonligida siyosiy hokimiyat qipchoq urug'lari qo'ida edi. Ular asosan Namangan, Andijon, O'sh, Aravon atroflarida yashagan va xonlikdagi

harbiy hamda siyosiy lavozimlarning ko'pchiligi ularga tegishli edi. Eng qudratli Qipchoqlardan biri Musulmonqul mingboshi aslida Qipchoq emas, lekin ular bilan ittifoqda bo'lgan.

U Muhammad Alixon va keyinchalik Sayyid Muhammad Xudoyorxon davrida katta kuchga ega bo'lgan. Qipchoqlar harbiy jihatdan xonlikdagi eng kuchli qatlam edi. Ular harbiy mansablarni egallab, soliqlarni o'zicha yig'ar, hatto ayrim viloyatlarda mustaqil siyosat yuritardi. Bu hol markaziy hokimyatni zayiflashtirdi. Qipchoqlarning hokimiyatda ustunligi boshqa guruhlarini ayniqsa, O'zbeklarning Ming, Qatag'on, Yuz urug'lari va shuningdek Sayyid va ulamolarni g'azablantirgan.

Ular Musulmonqulni va Qipchoqlarni "xo'jayin" sifatida ko'rishni istashmagan. Musulmonqulga qarshi fitnalar kuchaydi. Ba'zi manbalarga ko'ra, Xudoyorxonning onasi, Musulmonqulning o'zining raqiblari Qipchoqlarga qarshi isyonni rejalashtirishgan. Maqsad Qipchoqlarning siyosiy kuchini butunlay yo'q qilish edi. 1852-yilda Musulmonqul o'z raqiblari tomonidan Qo'qonda hiyla yo'li orqali qo'lga olinadi. Shundan so'ng xonlikda Qipchoqlarga qarshi ommaviy jazolashlar boshlanadi.

Qipchoqlarning Qo'qondagi oilalari, xotin-bolalari, va hatto qurollanmagan aholisi ham ommaviy qatil qilinadi. Qirg'in oqibatida bir nacha minglab Qipchoqlar o'ldirilgan, ularning mol-mulki talangan, omon qolganlari esa O'sh, Jalalobod, Turkiston, va hattoki Rossiya hududlariga qochgan. Qipchoqlar qirg'inidan so'ng Qo'qon xonligi siyosiy jihatdan ancha kuchsizlanib qolgan, buning natijasida Qo'qon xonligida ichki parchalanish kuchayadi va xonlik ichida boshqa urug'lar o'rtasida raqobat kuchaygan. Va ko'p o'tmey 1876-yilda Qo'qon xonligi Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingan.[6]. Qipchoqlar nafaqat urushlarda fovol edi balki ilim-fanda ham boshqa halqlardan qolishmagan. Qipchoqlar mintaqadagi adabiy turki til xususan Chaghatay tili va keyinchalik O'zbek tilida Kipchak til guruhiga shakllar muhim rol o'ynagan. O'zbek tili shakillanishida Kipchak guruhidan til elementi aralashib qolgan.

Qipchoq tili o'rta asr turkiy tillari orasida ilmiy-amaliy tildan biri sifatida shakllangan. U arab va fors tillari bilan bir qatorda ko'plab ilmiy, diniy va tarjimasida ishlatilgan. Qipchoqlar haqida Mahmud Qoshg'ariy o'zining Devoni lug'otit-turk asarida shunday takidlab o'tadi. Qipchoq tili turk tillari ichida talaffuz jihatidan ancha qattiq va tovushlari yo'g'on, lekin so'z boyligi jihatidan keng va kuchlidir[7]. Qipchoq konfederatsiyasi o'zining siyosiy mustahkamli ko'p qabila va urug'larining mustaqil harakatlari sabab yo'qata boshladi. Har bir qabila o'z urug' boshlig'iga bo'ysinganligi uchun markazlashgan davlat tuzulmasi paydo bo'lmadi. Bu esa tashqi bosqinlar, xususan Mo'g'illar hujumiga qarshi yagona qarshilik ko'rsatish imkoniyatini kamaytirdi. Asta sekinlik bilan Qipchoqlar tarix zarvaraqasidan yo'qola boshladi[8].

XULOSA

Qipchoqlar Markaziy Osiyo tarixida, etnik va madaniy jihatdan muhim o'rin egallagan xalq sifatida maydonga chiqqan. Ularning IX-XIII asrlarda mintaq hududkarida faol harakat qilishi O'rta Osiyo xalqlarining etnik shakillanishi, ijtimoiy tuzulmasi va siyosiy tizimlarga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Qipchoq qabilalari dastlab ko'chmanchi hayot tarzini olib borgan bo'lsa-da, keyinchalik Xorazm, Sirdaryo va Dashti Qipchoq hududlarida

o'troqlashib, mahalliy xalqlar bilan iqtisodiy hamda madaniy aloqalar o'rnatgan. Ularning harbiy qudrati va strategik ahamiyati tufayli Qipchoqlar Saljuqiylar, Xorazmshohlar va boshqa davlatlar harbiy-siyosiy hayotida muhim ro'l o'ynagan. Ayniqsa Qipchoq jangchilari o'zini intizomi, otliq qo'shinlarning tezkorligi bilan o'sha davr tarixida katta iz qoldirgan. Madaniy va til jihatidan Qipchoq tili o'rta asr turkiy tillari orasida markaziy o'rinni egallagan bo'lib, u hozirgi o'zbek, qozoq, qoraqalpoq, tatar va boshqa turkiy xalqlarning til taraqqiyotiga asos bo'lgan.

Shu bois, Qipchoqlarning Markaziy Osiyodagi roli nafaqat tarixiy voqealar bilan, balki til, madaniyat va urf-odatlar orqali ham davom etib kelmoqda. Umuman olganda, Qipchoqlar Markaziy Osiyo tarixining ajralmas bo'lagi bo'lib, ularning siyosiy faoliyati, madaniy merosi va ijtimoiy hayoti mintaqa sivilizatsiyasining shakllanish jarayonida muhim omil bo'lib xizmat qilgan. Bugungi kunda ham Qipchoqlar merosi Markaziy Osiyo xalqlarining umumiy tarixiy ildizlarini o'rganishda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Justin Dragosani Brantingham. An Illustrated Introduction to the Kipchak Turks, AQSH – 1999 c P. 5-7.
2. B.Pyotr. An Introduction to the History of the Turkic Peoples. Otto Harrassowitz c P. 9-15.
3. Lev. N. Gumilev. Drevniye Turki. Moskva – 1967 – P. 262-278.
4. Istvan Vassary. Cumans ant Tatars. Oriental Millitary in the Pre-Ottaman Balkons 1185-1365, Cambredge – 2005 – P. 22-30.
5. Musulmonqul - Vikipediya
6. Lev. N. Gumilev. “ Ot russi do russi”. Ayris-Pres, Moskva – 1992. P.129-133.
7. Mahmud al- Koshg'ariy. Divan Lug'g't at-Turk. Ali Emir nashriyoti – 1915 – P. 28-34.
8. Ismailzade S.J. Kipchaks in the Cucasus – 2024 – P. 58-75.